TOSHKENT VILOYATI ZANGIOTA TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 11-iyul 146-10-138-Q/24 Zangiota tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 16-maydagi 362-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-maydagi “Iqtisodiyotda davlat ishtirokini qisqartirish jarayonlarini va xususiylashtirish dasturi ijrosini samarali tashkil etishchora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 268-sonli qarori hamda Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 16-maydagi 362-10-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-maydagi 268-sonli hamda Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 16-maydagi 362-10-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan:

- tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini tashkil etish uchun yer uchastkalarining ustuvor ravishda mulk huquqi asosida auksion savdolariga 2024-yilda chiqarilishi rejasi;

- xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo‘llari bo‘ylab zamonaviy infratuzilmani barpo etish, savdo va servis obyektlarini joylashtirish uchun yer uchastkalari rejasi;

- Respublikadagi shahar va shaharchalarning shaharsozlik hujjatlari (bosh rejalar) bilan ta’minlash rejasi tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi, Kadastr agentligining Davlat kadastrlar palatasi Zangiota tuman filiali:

a) tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini tashkil etish uchun rejaga muvofiq yer uchastkalarining ustuvor ravishda mulk huquqi asosida auksion savdolariga chiqarilishini ta’minlasin.

Bunda:

- shaharsozlik hujjatlari ishlab chiqilmagan yer uchastkalari ijara huquqi asosida savdoga chiqariladi;

- er uchastkalarini mulk huquqi asosida savdoga chiqarishda yer uchastkalariga qo‘yiladigan shaharsozlik talablarining bajarilishiga tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo`limi tomonidan alohida e’tibor qaratilad;

b) xalqaro ahamiyatdagi avtomobil yo‘llari bo‘ylab zamonaviy infratuzilmani barpo etish, savdo va servis obyektlarini joylashtirish uchun rejaga muvofiq yer uchastkalari master-reja asosida savdolarga chiqarilishini ta’minlasin.

4. 2024-yil 10-maydan boshlab joriy yil yakuniga qadar tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi, Kadastr agentligining Zangiota tuman bo`limi bilan birgalikda master-rejalarga muvofiq zamonaviy xizmat ko‘rsatish majmualari va servis obyektlarini, jumladan, joylashtirish vositalari, turar joylar, savdo-ko‘ngilochar markazlarini tashkil qilish uchun bo‘sh yer uchastkalarini auksion savdolariga chiqarish choralarini ko‘rsin;

- 2024-yil 1-iyulga qadar aniq yer uchastkasi bo‘yicha master-rejalarning ishlab chiqilishini yakunlab, hududiy arxitektura va shaharsozlik kengashlari bilan kelishilgan holda tasdiqlanishini ta’minlasin;

- tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi bilan birgalikda master-reja ishlab chiqilgan hududlardagi yer uchastkalarining toifasini sug‘orilmaydigan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar toifasidan sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo‘ljallangan yerlar toifasiga o‘tkazish bo‘yicha takliflarni tuman hokimligiga kiritib borsin.

5. Tuman Investitsiyalar va tashqi savdo bo‘limi (T.Boliqulov) master-rejalar va ular asosida auksion savdolariga chiqariladigan yer uchastkalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni aholi hamda tadbirkorlar, jumladan, mahalliy va xorijiy investorlar o‘rtasida keng yoritilishini tashkil qilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sh.Berdiyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **E.E.RUSTAMOV**